

## ZO'RLIK ISHLATIB SODIR QILINADIGAN TALON-TAROJ JINOYATLARINING JAVOBGARLIGINI OG'IRLASHTIRUVCHI HOLATLAR

Saliyev Otabek Ilxom o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

II bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13729594>

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, talon-taroj qilish, aybdor, bosqinchilik, xavfli retsdiv jinoyat.

Zo'rlik ishlatib, bir guruh shaxslar tomonidan o'zga shaxsning mol-mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar uchun javobgarlik masalasi bosqinchilik uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 164-moddasi 2-qismi "b" bandi, tovlamachilik uchun 165-moddasi 2-qismi "v" bandi hamda talonchilik uchun 166-moddasi 2-qismi "v" bandi bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 29-moddasining uchinchi qismiga binoan, ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirib jinoyat sodir etishda ishtirok etishi murakkab ishtirokchilik deb topilishi belgilab qo'yilgan.

Qonunga ko'ra, bir guruh shaxslar tomonidan o'zganing mol-mulkini zo'rlik bilan talon-taroj qilish munosabati bilan sodir etilgan jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- kamida ikkita jinoyat bajaruvchisining aybdor sifatida birgalikda ishtirok etishi;
  - jinoyat birinchi marta sodir etilganligi;
  - talon-taroj qilingan mol-mulkning ancha yoki undan kam miqdorda sodir qilinganligi.
- Agar ikki kishi jinoyat sodir qilishda javobgarlikka tortilib, biri bajaruvchi sifatida,

ikkinchisi yordamchi sifatida qatnashgan bo'lsa yoki jinoyat ikki shaxs tomonidan sodir etilib, ulardan biri jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yoshiga etmagan bo'lsa yoxud aqli noraso bo'lsa, jinoyat bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan hisoblanmaydi. Chunki bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan deb hisoblash uchun, jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan kamida ikkita aqli raso shaxs bo'lishi kerak.

Ba'zi sudlar amaliyotlarida ikki kishi jinoyat sodir etganlikda ayblanib, ulardan biri yordamchi yoki dalolatchi sifatida qatnashgan bo'lsa-da, qilmish bir guruh shaxslar tomonidan qilingan deb kvalifikatsiya qilinishi holatlari uchraydi.

Yuridik adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, ushbu sohada tadqiqotlar olib borgan olimlar yuqoridagi holatlarda sodir etilgan jinoyatlar bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan deb hisoblanmasligi lozim, deb qayd etganlar.

Zo'rlik ishlatib o'zganing mulkini takroran, xavfli retsdivist tomonidan talon-taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik masalasi bosqinchilik jinoyatida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 164-moddasi 3-qismi "b" bandi, tovlamachilik jinoyatida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 165-moddasi 2-qismi "b" bandi hamda talonchilik jinoyatida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 166-moddasi 3-qismi "a" bandida belgilab qo'yilgan.

Shaxs takroran jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilishi uchun u ilgari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 164, 165, 166-moddalarining ma'lum qismida ko'rsatilgan

jinoyatni sodir etgan bo'lib, ma'lum bir vakt o'tganidan so'ng yana ushbu moddalarning tegishli qismida ko'rsatilgan jinoyatni sodir qilishi hamda bu jinoyatlar alohida va har biri mustaqil jinoyatdan iborat bo'lishi kerak. Shundan keyingina jinoyat takroran sodir qilingan deb hisoblanadi.

Agar shaxs ilgari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 164, 165, 166-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan bo'lsa va jinoyat qonuni bo'yicha javobgarlikdan ozod qilingan bo'lsa, u ilgari sodir etgan jinoyati uchun sudlanmagan deb hisoblanadi va shunga muvofiq, avvalgi jinoyatiga o'xshash qilmish sodir etgan taqdirda ham, u takroran sodir etilgan deb hisoblanmaydi. Hatto shaxs ilgari sodir etgan jinoyati uchun sudlangan va shunga o'xshash jinoyatni jazo muddati tugashidan oldin sodir etgan bo'lsa ham, jinoyat takroran deb hisoblanmaydi. Chunki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 34-moddasiga binoan, agar shaxs ilgari sodir etgan jinoyati uchun sudlangan bo'lsa, bu retsidiv jinoyat hisoblanadi.

Takroran jinoyat sodir etish belgilari:

- Jinoyat kodeksi Maxsus qismining aynan bir moddasida, qismida, Kodeksda alohida ko'rsatilgan hollarda esa, turli moddalarida nazarda tutilgan ikki yoki bir necha jinoyatni sodir etgan bo'lishi;
- turli vaqtlarda sodir etgan bo'lishi;
- ularning birortasi uchun ham sudlangan bo'lmasligi;
- umumiy qasd bilan qamrab olinmagan bo'lishi.

Xavfli retsidivist deb hisoblash uchun shaxs avvalgi jinoyati uchun qanday jazoga hukm qilinganligi muhim emas. Chunki Jinoyat kodeksining 34-moddasi 2-qismiga ko'ra, avval hukm qilingan jinoyatga o'xshash jinoyat sodir etishning o'zi bu qilmishni xavfli retsidiv jinoyat deb hisoblash uchun asosdir. Bu vaziyatda jazoning turi va jazo muddatini muhim emas.

A.Yakubov va B.D. Mirenskiyning fikricha, "sodir etgan jinoyati uchun ilgari ozodlikdan mahrum etilgan shaxs yana o'sha jinoyatga o'xshash qilmishni sodir etsa, xavfli retsidivist deb topiladi". Ammo biz bu fikrga qo'shila olmaymiz. Chunki xavfli retsidiv jinoyat tushunchasini bunday shaklda talqin etish Jinoyat kodeksining 34-moddasiga mos kelmaydi. Jinoyatni xavfli retsidiv deb hisoblanishi uchun shaxs nafaqat avvalgi jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilingan, balki har qanday jinoyi jazoga tortilgan bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 164-moddasi 3-qismi "b" bandi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 165-moddasi 2-qismi "b" bandi va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 166-moddasi 3-qismi "v" bandida zo'rlik ishlatib ko'p miqdordagi; O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 164-moddasi 4-qismi "a" bandi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 165-moddasi 3-qismi "a" bandi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 166-moddasi 4-qismi "a" bandida esa zo'rlik ishlatib juda ko'p miqdordagi mol-mulkni talon-toraj qilish bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari belgilab qo'yilgan.

Ko'p va juda ko'p miqdorni belgilash tartibi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining sakkizinchi, ya'ni "Atamalarining xukukiy ma'nosi" bo'limida berilgan bo'lib, bazaviy hisoblash miqdorining 300 baravaridan 500 baravarigacha bo'lgan miqdor - ko'p miqdor, 500 baravari va undan ortiq miqdor - juda ko'p miqdor hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz va undan ko'p baravariga teng miqdorni juda ko'p miqdor sifatida belgilash to'g'ri bo'ldi. Chunki pul xarid quvvatining pasayishi, inflyatsiyaning oshishi, unchalik ahamiyatli bo'lmagan ashyolar talon-toraj qilinganda ham juda katta narxda baxolanib, buning natijasida shaxsning asossiz ravishda nohaq jazolanishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababdan Jinoyat kodeksiga kiritilgan ushbu o'zgartishlar ma'lum darajada adolatli jazo tayinlashga imkon berdi.

### References:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари миллий базасининг расмий веб-сайти – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари миллий базасининг расмий веб-сайти – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги 6-сонли “Ўзгалар мулкни ўғрилик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари миллий базасининг расмий веб-сайти – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 27 февралдаги 3-сонли “Қонунга хилоф равишда қуролга эгалик қилиш тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида”ги қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари миллий базасининг расмий веб-сайти – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги 11-сонли “Иқтисодиёт соҳасидаги жиноий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида”ги қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари миллий базасининг расмий веб-сайти – [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
6. П.Бакунов. Зўрлик ишлатиб содир этиладиган талон-торож жиноятлари. Монография. Масъул муҳаррир: ю.ф.н., доц. М.Усмоналиев. -Т.: ТДЮИ нашриёти, 2011. 332 бет.
7. И.Р.Астанов. Зўрлик ишлатиб содир этиладиган жиноятлар ва уларни тергов қилишнинг ўзига хос жihatлари: ўқув қўлланма..-Т. ТДЮУ, 2015. - 140 б.
8. Усмоналиев М., Бакунов П. Талончилик учун жавобгарликни либераллаштириш муаммолари: Магистрантлар у-н ўқув қўлланма/ Усмоналиев М., Бакунов П.; ТДЮИ; Масъул муҳаррир: М.Х.Рустамбоев. - Т.: ТДЮИ, 2007.- 44 б.